

5-sinf adabiyot. 2-BSB (50 ball)

ASAR TAHLILI

Asar tahlili uchun tavsiya etiladigan mavzu:

Isajon Sultonning “Otamga nimadir bo‘ldi” hikoyasi

BSB bo‘yicha o‘quvchiga qo‘yiladigan talablar:

- o‘z fikrini imlo va husnixat qoidalariga rioya qilgan holda yozma ifoda etadi;
- mavzuni qayta o‘rganib, o‘rganganlari asosida o‘z fikr-mulohazalari, taassurotlari va xulosalarini aniq, tartibli (ketma-ketlikka amal qilgan holda) hamda badiiy-tasviriyy vositalar bilan boyitib ifodalaydi.

Asar tahlili uchun topshiriqlar:

1. Asarning asosiy mavzusi va g‘oyasini yozing. Muallif qanday muammolarni ko‘targan?
2. Asardagi bosh qahramonlarning fe‘l-atvori, qarashlari, xatti-harakatlari haqida o‘z fikr-mulohazangizni yozing.
3. Asardagi muammoni aniqlang, kelib chiqish sababi va unga munosabatingizni yozing.
4. Asar mazmuni bugungi kun uchun qay darajada ahamiyatli? Fikrlaringizni yozing.
5. Asar sizga yoqdimi/yoqmadimi? Sababini izohlang.

ESLATMA: har bir topshiriqqa yozgan javobingiz 7-8 gapdan iborat bo‘lishi lozim!

Baholash mezonlari (50 ball)	Ball
1. Asarning asosiy mavzu va g‘oyasini ochib berishi	10 ball
Asarning asosiy mavzusi va g‘oyasini tushungan, muallif ko‘targan muammoni anglay olgan va bular haqida aniq, tartibli tarzda o‘z fikrlarini bayon etgan bo‘lsa –	10 – 8 ball
Asarning asosiy mavzusi va g‘oyasini tushungan va bu haqida aniq va tartibli bayon etgan, ammo muallif ko‘targan muammoni to‘liq anglay olmaganligi sabab yetarlicha yorita olmagan bo‘lsa –	7 – 5 ball
Asar mazmunini chuqur tushuna olmaganligi sabab mavzu va g‘oya haqidagi fikrlarini yetarlicha bayon eta olmagan bo‘lsa –	4 – 1 ball
2. Asardagi obrazlar tahlili	10 ball
Asardagi bosh qahramonlar haqida o‘z mulohazalarini yozgan, obrazlar haqidagi fikrlarini asoslay olgan bo‘lsa –	10 – 8 ball
Asardagi bosh qahramonlar haqida o‘z mulohazalarini yozgan, obrazlar haqidagi fikrlari deyarli asoslanmagan bo‘lsa –	7 – 5 ball
Asar mazmunini to‘liq tushunmagani sabab obrazlar haqidagi fikrlarini asoslay olmagan bo‘lsa –	4 – 1 ball

3. Muammolarning kelib chiqish sabablarini yoritib olishi	10 ball
Asardagi muammoni aniqlay olgan, muammoning kelib chiqish sababini tushungan va unga munosabatini asosli tarzda aniq va izchil bayon etib olgan bo'lsa –	10 – 8 ball
Asardagi muammoni aniqlay olgan, muammoning kelib chiqish sababini tushungan, ammo unga munosabatini asosli tarzda bayon etib olmagan bo'lsa –	7 – 5 ball
Asar mazmunini yaxshi tushunmagani bois asardagi muammoni to'liq anglamagan, shu sabab muammoga munosabatini yuzaki ifodalagan bo'lsa –	4 – 1 ball
4. Asarning bugungi kundagi dolzarblik darajasi	10 ball
Asar g'oyasi bugungi kun uchun qay darajada ahamiyatli ekanligini, obrazlardagi mehr va sadoqat kabi xislatlarni bugungi kun kishisi uchun qay darajada muhimligini asosli tarzda bayon etib olgan bo'lsa –	10 – 8 ball
Asar g'oyasi bugungi kun uchun qay darajada ahamiyatli ekanligini anglagan, ammo obrazlardagi mehr va sadoqat kabi xislatlarni bugungi kun kishisi uchun qay darajada muhimligi haqida to'xtalmagan bo'lsa –	7 – 5 ball
Asarning g'oyasi va obrazlari haqidagi fikrlar bor-u, ularning bugungi kundagi ahamiyati haqida deyarli to'xtalmagan bo'lsa –	4 – 1 ball
5. Asar haqidagi xulosalarini bayon qilishi	10 ball
Asarning qaysi jihatlari yoqqan/yoqmaganini asardan keltirilgan o'rinlar orqali asoslagan bo'lsa –	10 – 8 ball
Asarning qaysi jihatlari yoqqan/yoqmaganini shaxsiy fikrlari orqali ifodalay olgan, ammo fikrlarini asardan misol keltirib asoslamagan bo'lsa –	7 – 5 ball
Asarning qaysi jihatlari yoqqan/yoqmaganini yuzaki tarzda ifodalagan, shuningdek, fikrlarini asoslamagan bo'lsa –	4 – 1 ball
Jami:	50 ball